

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

No 8

2025

avgust



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Visualdsp++ platformasida raqamli signal protsessorlarini dasturlash texnologiyasi	12
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich	
Tadbirkorlik tushunchasi: falsafiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik tahlil.....	19
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
Xorijiy davlatlar sog'liqni saqlash tizimida investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish mexanizmi.....	26
Karabayev Sanjar Abdusamatovich	
Feasibility study and site optimization for small hydropower plants along the syr darya river in Uzbekistan.....	33
Karimov Mustafo Aminbayevich, Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
Agrar sohada risklarning o'zaro ta'sirchan tarzda namoyon bo'lish xususiyatlari.....	42
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Parrandachilik mahsulotlari omilli tahlil qilishda indeks usulidan foydalanish.	47
Bobomuratov Imomkul Islamovich	
O'zbekiston telekommunikatsiya sohasida raqamlashtirish jarayonlarini samarali boshqarish: "O'zbektelekom" ak misolida	56
Islamov Javlon Rasulovich	
Tijorat banklari amaliyotida jinoi daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish yo'nalishlari.....	59
Rustamov Sunnatillo Rustamovich	
Tadbirkorlikning mamlakat yaimdag'i ulushi va uning o'zgarish tamoyillari	66
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Norasmiy bandlikning yashirin iqtisodiyot shakllanishi va dinamikasiga ta'sirining nazariy va amaliy jihatlari	72
Xasanov Jaxongir Jamshidovich, Sharifxo'jayev Shavkat Oqilovich	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlarning amaliy holati va dinamikasi	80
Irgasheva Nigora Akbarovna	
Туристская мобильность стран персидского залива как устойчивый и перспективный источник въездного туризма в Узбекистан	87
Голышева Елена Вячеславовна; Додиев Феруз	
O'zbekistonda sug'urta bozori holati va o'sish sur'ati	96
Bazarov Zakir Xonqulovich	
Davlat xardilarida narxning eng yuqori chegarasi: huquqiy mexanizm va amaliy ahamiyati	101
Mamasoliyev Abrorbek Abdu'ani o'g'li	
O'zbekiston respublikasida norasmiy sektor va aholini norasmiy mehnat bilan bandligining legallashtirishini boshqarishni istiqbolli ko'rsatkichlari	105
Qoraboev Nuriddin Pardaboy o'g'li	
Разработка инновационных инструментов и механизмов стратегического управления проектами	110
Мансурова Севара Мансуровна	
Sug'urta kompaniyalarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning metodologik asoslari: nazariy va amaliy jihatlar	114
Haqberdiyev Bekzod O'ktamovich	
Учёт и аудит обязательств на предприятиях: анализ зарубежного опыта и практики	120
Халықназарова Гулназ Жалгасбай кызы	
Theoretical Basis for Ensuring a Cotton Layer on a Conveyor Belt	126
G.R.Rakhmatov	



Korxonalarning moliyaviy barqarorligini boshqarish	132
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li	
Targetlangan iqtisodiy siyosat orqali kambag'allikka qarshi kurash.....	138
Baratov J.N.	
Jismoniy shaxslarning daromadlariga deklaratsiya asosida soliq solish mexanzmini takomillashtirish	144
Ibragimov Zafar Ismailovich	
Bekobod sement zavodida ishlab chiqarish jarayonlarida og'ir mehnat omillarini avtomatlashtirish orqali xavfni kamaytirish	152
Ishchanov Atabay Reyimberdiyevich	
Tadbirkorlikning mamlakat yaimdag'i ulushi va uning o'zgarish tamoyillari	159
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Prakticheskie podkhody k vyjavleniju i otsenke naologovyx riskov na osnovre segmentacii dejatel'nosti naologoplatel'shikov	164
Голубова Ольга Сергеевна, Элбаева Мукаддас Рашидовна	
Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jaroyonlarini takomillashtirish	170
Kulboyeva Nargiz Majitovna	
O'zbekistonda innovatsion faoliyatga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillar.....	176
Anasxon Yunusov A'zamjon o'g'li	
Primenenie metoda analiza ierarhijii dlya vybora optimal'noj eksportnoj strategii: na primeere Uzbeckixxix predpriyatiy, eksportiruyuchih tovari v rossiju.....	180
Муниса Мирзалиевна Турдибаева	
Processing of Sulfide Copper Ores With Copper and Silver Recovery.	185
Mamaisakova Zebo Bahodir qizi	
Korxonalar eksport salohiyatini rivojlantirishning xorij tajribasi.....	189
Naimxonov Ma'rufxon Zokirxon Og'lli	
Corporate Governance Reforms and Financial Performance Dynamics: Evidence From State-Owned Banks in Uzbekistan	194
Yusufjon Pulatov, Bakhtiyor Islamov	
Tijorat banklari tomonidan kreditlash mexanizmining uslubiy jihatlari va o'ziga xos xususiyatlari	200
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Vosstanovlenie geologicheskix signalov s ispol'zovaniem kubicheskix basissnyx splajnov.....	204
Гофуржонов Мухаммадали, Гофуржонова Маржона	
Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning amaliy jihatlari	210
Madaminov Bekzod Allayarovich	
Moliyaviy savodxonlik va moliyaviy siyosatning o'zaro ta'siri: O'zbekiston va xalqaro tajriba tahlili.....	215
Irgashev Anvar Farkodovich	
Yashil moliyalashtirishda moliyaviy instrumentlar	220
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
Sanoatni rivojlanish tendensiyalari va o'ziga xos xususiyatlari (Xorazm viloyati misolida).....	224
Salayev Jasurbek Komilovich	
Tijorat banklari raqobatbardoshlik qobiliyatini oshirish bo'yicha xorij tajribasi va uni O'zbekiston tijorat banklari faoliyatida qo'llanilishi.....	230
Shamsiyev Nurbek Fazliddin o'g'li	
Mamlakatda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish dastaklari	237
Raxmonov Lochin To'xtamishovich	
Theoretical principles of cluster formation in metallurgical industry enterprises.....	243
Abdullayeva Matluba Nematovna	

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ

• CONTENTS



TARGETLANGAN IQTISODIY SIYOSAT ORQALI KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASH

Baratov J.N.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi
javlonbek.baratov97@gmail.com

Annotatsiya: 2017–2021-yillarda davomida O'zbekistonda pul-kredit siyosati tizimida muhim islohotlar amalga oshirildi. Biroq infliyatsion targetlash rejimiga o'tish oson vazifa emas, chunki mamlakat hozirgi vaqtida chuqr tarkibiy o'zgarishlar bosqichida turibdi. Shu sababli Markaziy bank islohotlarni doimiy monitoring qilishi va pul-kredit siyosatini ushbu jaryonlarga muvofiq tarzda moslashtirib borishi zarur. Tadqiqot ishida institutsional hamda tarkibiy cheklar tahlil qilindi va pul-kredit siyosati transmissiya mexanizmlarining samaradorligi baholandi. Institutsional muammolar maxsus indekslar asosida, transmissiya jarayonlari esa VAR modellari orqali o'rganildi. Olingan natijalar yaqin yillarda Markaziy bank boshqaruvini yanada takomillashtirish, uning mustaqilligini kuchaytirish, moliya bozorlarini rivojlantirish hamda davlatning iqtisodiyot va moliya tizimiga bo'lgan ta'sirini bosqichma-bosqich kamaytirish zarurligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: Kambag'allikni qisqartirish, Targetlangan iqtisodiy siyosat, Geografik targetlash, Inflyatsion targetlash, Ijtimoiy adolat, Hududiy rivojlanish, Ijtimoiy yordam tizimi, Raqamli iqtisodiyot, Mahalliylashtirilgan yordam mexanizmlari, Iqtisodiy samaradorli

Abstract: Between 2017 and 2021, Uzbekistan implemented significant reforms in its monetary policy framework. Nevertheless, the transition to an inflation-targeting regime remains a challenging task, as the country is currently undergoing profound structural transformations. In this context, the Central Bank must continuously monitor the reform process and adjust its monetary policy in line with ongoing changes. This study identifies institutional and structural constraints and evaluates the effectiveness of the monetary policy transmission mechanisms. Institutional shortcomings are assessed through specific indices, while transmission processes are analyzed using VAR models. The findings highlight the necessity of further improving the governance of the Central Bank, strengthening its independence, developing financial markets, and gradually reducing the excessive role of the state in the economy and financial sector.

Keywords: Poverty reduction, Targeted economic policy, Geographical targeting, Inflation targeting, Social justice, Regional development, Social assistance system, Digital economy, Localized support mechanisms, Economic efficiency

Аннотация: В период 2017–2021 годов в Узбекистане были проведены значительные реформы в системе денежно-кредитной политики. Однако переход к режиму инфляционного таргетирования остаётся сложной задачей, так как страна переживает этап глубоких структурных преобразований. В этой связи Центральный банк должен постоянно отслеживать ход реформ и адаптировать денежно-кредитную политику в соответствии с происходящими изменениями. В исследовании выявлены институциональные и структурные ограничения, а также проведена оценка эффективности механизмов трансмиссии денежно-кредитной политики. Институциональные проблемы были проанализированы с помощью специальных индексов, а трансмиссионные процессы — на основе VAR-моделей. Полученные результаты показали необходимость дальнейшего совершенствования управления Центральным банком, укрепления его независимости, развития финансовых рынков и постепенного сокращения чрезмерного влияния государства на экономику и финансовую систему.

Ключевые слова: Снижение бедности, Таргетированная экономическая политика, Географическое таргетирование, Инфляционное таргетирование, Социальная справедливость, Региональное развитие, Система социальной поддержки, Цифровая экономика, Механизмы локализованной помощи, Экономическая эффективность

KIRISH

Hozirgi global iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda pul-kredit siyosatining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Xususan, infliyatsiya jarayonlarini samarali boshqarish va iqtisodiy o'sishga barqaror asos yaratish ko'pgina mamlakatlar uchun ustuvor vazifaga aylandi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadi, mamlakatlarda amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati bir qirrali bo'lib qolsa, u holda kutilmagan va noxush iqtisodiy oqibatlar yuzaga kelishi mumkin. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlar amaliyotida yo'l qo'yilgan xatolaridan biri sifatida pul-kredit siyosatining asosiy e'tibori ko'pincha faqat infliyatsiya darajasini pasaytirishga qaratilishi kuzatiladi. Bu kabi yondashuv ma'lum davrda samara bergan bo'lsa-da, uzoq muddatda deflyatsiya xavfini kuchaytirib, iqtisodiyot uchun jiddiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Masalan, AQSh Federal zaxira tizimi raisi B. Bernanke 2003-yil may oyida Yaponiya moliyachilarini va iqtisodchilari jamiyatidagi chiqishida deflyatsiya bilan kurashayotgan mamlakatlar uchun infliyatsiyani targetlash kabi miqdoriy yo'nalishlarning qanchalik muhimligini ta'kidlagan edi. Shuningdek, 1990-yillarda boshiga kelib



inflyatsiyani barqarorlashtirishning an'anaviy usullari, jumladan pul agregatlarini targetlash globallashuv va moliya bozorlari chuqurlashgan sharoitda o'z samaradorligini yo'qota boshladi. Natijada ko'plab mamlakatlar inflyatsiyani targetlash siyosatiga o'tishga kirishdi. Ilk bor bu amaliyotni rasman joriy etgan mamlakat sifatida 1990-yilda Yangi Zelandiya Zaxira Banki tilga olinadi.

Inflyatsiyani targetlashning asosiy mohiyati – narxlarni qat'iy "qotirib qo'yish" emas, balki ularning barqaror va mo'tadil o'sishini ta'minlashdan iborat. Agar bu siyosatni qattiq cheklovchi "temir qolip" sifatida qabul qilinsa, mamlakatda iqtisodiy vaziyatdan qat'i nazar qattiq pul-kredit siyosatini yuritishga to'g'ri keladi. Bu esa o'z-o'zidan iqtisodiyotning turli sektorlariga zanjirsimon salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, inflyatsiyani targetlashga o'tishda mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy sharoiti, shuningdek, tarkibiy islohotlar jarayoni ham inobatga olinishi zarur. Zero, targetlangan iqtisodiy siyosat nafaqat inflyatsiya darajasini barqarorlashtirish, balki ijtimoiy adolatni ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishda ham muhim o'rinni tutadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — targetlangan iqtisodiy siyosatning kambag'allikni qisqartirishdagi o'rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda uning amaliy samaradorligini baholashdan iborat. Tadqiqotda inflyatsiya va geografik targetlashning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'siri o'rganiladi, shuningdek, jahon amaliyoti bilan bir qatorda O'zbekistondagi mavjud islohotlar tajribasi ham tahlil etiladi.

Maqolada targetlangan siyosatning faqat makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bilan cheklanib qolmasdan, balki aholi turmush darajasini oshirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va hududlar kesimida teng iqtisodiy rivojlanishga xizmat qilish imkoniyatlari ochib beriladi. Shu orqali, maqola iqtisodiy siyosatni optimal yo'naltirish, kambag'allikka qarshi samarali mexanizmlarni ishlab chiqish va ularning ijtimoiy hayotdagi qo'llanilishini chuqurroq yoritishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ushbu tadqiqot metodologiyasi inflyatsion, geografik va boshqa turdag'i targetlash yondashuvlarini solishtirish hamda ularning kambag'allik darajasiga ta'sirini baholashga qaratilgan. Metodologik asos sifatida quyidagi yondashuvlar qo'llanildi:

Nazariy tahlil – targetlash siyosati bo'yicha xalqaro ilmiy adabiyotlar, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasi, shuningdek, xalqaro moliya institutlari hisobotlari o'rganildi.

Qiyosiy tahlil – inflyatsion, geografik va boshqa targetlash mexanizmlarining samaradorligi mamlakatlar kesimida taqqoslab chiqildi.

Statistik ma'lumotlar tahlili – Juhon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida kambag'allik ko'rsatkichlari hamda inflyatsiya darajasining dinamikasi o'rganildi.

Sotsiologik yondashuv – hududiy notekisliklar va aholi qatlamlarining real turmush sharoitlari bo'yicha qo'shimcha kuzatish va tahlillar olib borildi.

Amaliy takliflar ishlab chiqish – xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish asosida siyosiy va iqtisodiy tavsiyalar shakllantirildi.

Mazkur metodologiya tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minlash bilan birga, kambag'allikka qarshi kurashda turli targetlash usullarining afzallik va kamchiliklarini kompleks tahlil qilish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar sharoitida pul-kredit siyosatining maqsadli yo'naltirilishi, ayniqsa inflyatsiya jarayonlarini targetlashga o'tish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonni chuqur anglash uchun avvalo jahon tajribasiga murojat qilish zarur.

Glenn Rudebush va Karl Uolsh bergen ta'rifga ko'ra, inflyatsiyani targetlash – bu ommaga e'lon qilingan inflyatsiya maqsadli ko'rsatkichlariga erishish borasida Markaziy bank tomonidan olib boriladigan pul – kredit siyosati doirasida qaror qabul qilish uchun lozim bo'lgan modeldir. Bu Markaziy bank tomonidan inflyatsiya maqsadli ko'rsatkichlariga erishish uchun qabul qilinadigan, pul – kredit organlari uni nazorat qilishga mas'ul bo'lgan operatsion instrumentdir. Inflyatsiyani targetlash siyosatini qo'llagan mamlakatlarning maqsadli bir bo'lishiga qaramasdan amaliyotda ularni qo'llashga majbur qilgan sabablar birbiridan keskin farq qilishini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Germaniyada inflyatsiyani targetlash siyosatiga o'tishning sababi bo'lib, qat'iy belgilangan valyuta kursidan voz kechish siyosati hizmat qilgan bo'lsa, Kanada uchun esa ushbu holat pul massasini targetlash siyosatini qo'llashdagi omadsizliklar tufayli inflyatsiyani targetlash siyosatini qo'llash joriy qilingan. Buyuk Britaniyaning inflyatsiyani targetlash siyosatiga o'tishiga turki bo'lgan asosiy sabablardan biri bu pul massasini targetlashdagi omadsizliklar, hamda "Yevro zonasasi"dagi ishtiroti majbur qilgan. Inflyatsi-



yani targetlash siyosatini qo'llaganda, inflyatsiya darajasining eng maqbul darajasi sifatida 3% va undan kam bo'lgan sur'atlar ko'rsatiladi. Lekin, shunday bo'sada bu ko'rsatkich nol darajaga tushmasligi kerak. Chunki, inflyatsiyani nol darajada ushlab turilishi mamlakatda deflyatsiya holatini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan xavfni kuchaytiradi.

1-Jadval: Inflyatsiyani targetlash siyosatini qo'llovchi mamlakatlar¹

Mamlakatlar nomi	Inflyatsiani targetlash siyosatiga o'tish sanasi	Inflyatsiyani Targetlash siyosatiga o'tish davrida inflyatsiya suratlari (%)	2011- yilga inflyatsiyani o'rtacha yillik ko'rsatgichlari	2012-yilga inflyatsiyani o'rtacha yillik ko'rsatgichlari
Rivojlangan mamlakatlar				
1 Yangi Zelandiya	1990	3.3	2.3	4.5
2 Kanada	1991	8.9	1.8	2.8
3 Buyuk Britaniya	1992	4	3.7	4.2
4 Avstraliya	1993	2	2.8	3.4
5 Shvetsiya	1993	1.8	1.4	2.5
6 Shvetsariya	2000	1.6	0.7	0.4
7 Islandiya	2001	4.1	5.4	2.8
8 Novegiya	2001	3.6	2.5	1.4

Inflyatsiyani maqsadli yo'nalishlarini belgilash jarayonida nazariy jihatdan eng ko'p bahsga sabab bo'ladi-gan muammolardan biri — bu "narxlar barqarorligi" tushunchasini aniqlashdir. Chunki inflyatsiya nol darajada bo'lishi nazariy jihatdan mukammal holatdek ko'rinsa-da, amaliyotda buning imkonи yo'q. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda ham iste'mol narxlari, odatda, kamida 2% atrofida o'sib boradi. Shuning uchun inflyatsiya darajasini 1% ga pasaytirish iqtisodiy jihatdan katta samara bermaydi, aksincha, bunday maqsadga erishish uchun ko'p resurs sarflanadi.

Inflyatsiyani targetlashning eng muhim jihat — bu maqsadli ko'rsatkichning tebranish chegaralari. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, inflyatsiya darajasi 1% atrofida saqlanishi eng maqbul chegara hisoblanadi. Buning asosiy sababi — rivojlangan iqtisodiyotlar qisqa muddati shok va tebranishlarga chidamli bo'lishi bilan bog'liq. Agar maqsadli yo'nalish ortiqcha kengaytirib yuborilsa, bozor ishtirokchilari hukumat va markaziy bank siyosatiga ishonch bilan qaramay qo'yadi, bu esa inflyatsiyani barqarorlashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Targetlash muddati ham iqtisodiy sharoitga bog'liq holda turlicha belgilangan. Masalan, Yang Zelandiya va Kanadada dastlab inflyatsiyani maqsadli ko'rsatkichga yetikazish uchun 18 oylik muddat belgilangan bo'lsa, keyinroq u 12–18 oya qisqartirilgan, hozirda esa ko'proq o'rta muddati — 5 yillik strategiya qo'llaniladi. Bugungi kunda 28 ta mamlakat, jumladan, 8 ta rivojlangan davlat, qolganlari esa rivojlanayotgan yoki o'tish davridagi iqtisodiyotlar inflyatsiyani targetlash siyosatini amalgalashmoqda.

Bu siyosatni samarali olib borish uchun o'tgan yillarda iqtisodiy holatini chuqur tahvil qilish juda muhim. Chunki inflyatsiyaning harakatini oldindan bashorat qilish uchun iqtisodiy-matematik modellar qo'llaniladi va ular asosan quyidagi ko'rsatkichlarga tayanadi:

- real YALM,
- YALM deflyatori,
- iste'mol narxlari indeksi,
- sanoat ishlab chiqarish hajmi,
- ishsizlik darajasi va ulgurji narxlar,

¹ www.iqtisodiyot.uz

"Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2014 yil



pul massasi (M0–M4),
Markaziy bankning bazaviy stavkasi,
qisqa va uzoq muddatli foiz stavkalari,
davlat qimmatli qog'ozlari narxi.

Shu jihatdan inflyatsiyani targetlash nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki bozor ishtirokchilari ishonchi va kutilmalariga ham bevosita ta'sir qiladi. Maqsadli ko'rsatkichlar aniq, aniqlangan va barqaror bo'lganda inflyatsiya siyosati iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi.

Inflyatsiyani targetlashda geografik yondashuv ham muhim ahamiyatga ega. Chunki mamlakat ichidagi turli hududlarda inflyatsiya darajasi bir xil bo'lmaydi: yirik shaharlarda asosan iste'mol narxlari yuqori bo'lsa, qishloq joylarda maishiy xizmatlar yoki oziq-ovqat mahsulotlari narxi ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi. Geografik targetlash inflyatsiya siyosatida hududiy xususiyatlarni hisobga olishni taqozo etadi. Masalan, ayrim hududlarda transport va logistika xarajatlari inflyatsiyaga kuchli ta'sir qilsa, boshqa mintaqalarda import tovarlari narxi asosiy omil bo'ladi. Shu bois inflyatsiyani geografik kesimda tahlil qilish orqali hukumat va Markaziy bank hududiy inflyatsiya manbalarini aniqlab, maqsadli chora-tadbirlarni ishlab chiqishi mumkin.

Bunday yondashuv mamlakatda umumiy inflyatsiya darajasini pasaytirish bilan birga, hududlar o'tasidagi iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, hududiy inflyatsiya targetlash siyosatini samarali qo'llash ijtimoiy adolatni ta'minlaydi va aholi turli qatlamlariga moslashuvchan siyosat yuritish imkonini beradi.

2-jadval

	Targetlash siyosatigacha		Targetlash siyosatidan so'ng	
	O'rtacha	O'rtacha og'ish	O'rtacha	O'rtacha og'ish
Inflyatsiyani targetlash Siyosatini qo'llayotgan (IXTT) (10 ta)	9.21	7.22	3.22	2.03
Inflyatsiyani targetlash siyosatini qo'llamaydigan (IXTT) (16 ta)	7.72	5.09	5.22	2.73

Manba: Mualliflar tomonidan Walsh. Journal asosida tuzilgan.

Yuqorida jadval ma'lumotlari inflyatsiyani targetlash siyosatining samaradorligini aniq ko'rsatib bermoqda. Xususan, inflyatsiyani targetlash siyosatini qo'llayotgan davlatlarda (10 ta iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo mamlakatlari misolida) siyosat joriy etilishidan oldin o'rtacha inflyatsiya darajasi 9,21 foizni tashkil etgan bo'lsa, uning o'rtacha og'ishi 7,22 foiz atrofida bo'lgan. Ammo siyosat amalga oshirilgandan keyin bu ko'rsatkichlar sezilarli darajada pasaygan: inflyatsiya o'rtacha 3,22 foizga tushgan, o'rtacha og'ish esa 2,03 foizgacha qisqargan. Bu holat targetlash siyosati inflyatsiya darajasini barqarorlashtirishda ham, uning keskin tebranishlarini cheklashda ham yuqori samaraga ega ekanini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, inflyatsiyani targetlash siyosatini qo'llamaydigan davlatlarda (16 ta IXTT mamlakatlari) esa mutlaqo boshqacha vaziyat kuzatiladi. Siyosatdan oldin o'rtacha inflyatsiya darajasi 7,72 foiz bo'lib, o'rtacha og'ish 5,09 foizni tashkil etgan. Ammo targetlash amaliyoti joriy etilmagani sababli keyingi davrda inflyatsiya darajasi ortib 5,22 foizga yetgan, og'ish esa 2,73 foizgacha ko'tarilgan. Bu esa inflyatsiyaning barqaror darajada saqlanmaganini va keskin o'zgarishlar davom etganini anglatadi.

Jadval tahlilidan ko'rinish turibdiki, inflyatsiyani targetlash siyosati nafaqat inflyatsiya darajasini pasaytiradi, balki uning barqarorligini ham ta'minlaydi. Aksincha, bu siyosatni qo'llamagan davlatlarda inflyatsiya darajasi oshib borishi bilan birga uning o'zgaruvchanligi ham saqlanib qoladi.

Shu jihatdan, targetlash siyosati iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, bozor ishtirokchilari ishonchini oshirish va iqtisodiy o'sish uchun qulay sharoit yaratishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoida.



O'zbekistonda inflyatsion targetlash rejimini 2023-yilda to'liq joriy etish imkoniyatini ta'minlash maqsadida so'nggi yillarda institutsiyal hamda siyosiy asoslarni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirildi. 2017-yilgacha mamlakatda pul-kredit siyosati asosan almashuv kursiga bog'langan rejimga asoslanib kelgan. Biroq 2017-yil sentyabr oyida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (O'RMB) tamoman yangi yondashuvni qabul qilib, pul-kredit siyosatining bosh maqsadini narxlar barqarorligini ta'minlash sifatida belgiladi.

Muhim o'zgarishlardan yana biri shundaki, Markaziy bank hukumat to'liq nazoratidagi organlar ro'yxatidan chiqarildi va bu uning operatsion mustaqilligini oshirdi. Valyuta bozorida ham liberallashtirish jarayoni boshlandi: xorijiy valyutani sotib olishdagi chekllovlar bekor qilindi, natijada so'mning rasmii kursi 50 foizga qadrsizlandi va yagona almashuv kursi shakllandi. Ushbu jarayonlarni samarali amalga oshirish uchun Xalqaro valyuta jamg'armasi² (XVJ) texnik yordam dasturlari orqali faol qo'llab-quvvatladi.

2019-yil oktyabr oyida "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonunning yangi tahriri qabul qilinib, unda pul-kredit siyosatining eng asosiy vazifasi sifatida narxlar barqarorligini saqlash alohida qayd etildi. Shu bilan birga, O'RMB inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish jarayonini boshladi.


Mazkur hujjatda inflyatsion targetlashga o'tish bo'yicha erishilgan yutuqlar baholanmoqda, shuningdek, pul-kredit siyosati transmissiya mexanizmining samaradorligi tahlil qilinmoqda. Aynan shu orqali hal qilinishi lozim bo'lgan institutsiyal va tarkibiy muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Shu jihatdan, O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadi, inflyatsion targetlashni samarali joriy etish faqatgina pul-kredit siyosatini yangilash bilangina cheklanmaydi. Buning uchun moliya bozorining rivojlanishi, hukumat va Markaziy bank o'tasida aniq koordinatsiya, shuningdek, aholining ishonchini oshirish muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Inflyatsion targetlashga o'tish murakkab vazifa hisoblanadi, chunki, O'zbekistonda hali chuqur tarkibiy islohotlar jarayonlari davom etmoqda. Respublika hukumati 2017-yildan boshlab tashqi savdo, narxlar va valyuta bozorini erkinlashtirish, hukumat operatsiyalari va soliq tizimini isloh qilish³, shuningdek ishonchli statistik ma'lumotlarni shakllantirishni o'z ichiga olgan keng qamrovli islohotlar dasturi amalga oshirila boshlandi. Rejali xo'jalikdan bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida inflyatsiyaning kuchayishiga nafaqat talab va xarajat omillari, balki qator tarkibiy jarayonlar ham sabab bo'ldi. Jumladan, narxlarning erkinlashtirilishi hamda keyinchalik ayrim tovar va xizmatlar narxining bosqichma-bosqich muvofiqlashtirilishi inflyatsiya sur'atlarni tezlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'ldi. Shu bilan birga, tovar va mehnat bozorlarining yetarlicha moslashuvchan emasligi hamda narxlarning muntazam ravishda indeksatsiya qilinishi o'tish davridagi iqtisodiyotlarda inflyatsiya darajasining oshishiga olib keldi. Natijada, narxlarning ko'tarilishi aholining daromadlarining ham tez sur'atlarda o'sishiga sabab bo'ldi (Balassa-Samuelson effekti).

Boshqa tomondan, tarkibiy islohotlar tufayli iqtisodiy ko'rsatkichlar o'tasidagi bog'liqlik aniq bo'lmay qoldi, bu esa inflyatsiyani tahlil qilish jarayonini murakkablashtirdi. Shu sababli pul-kredit siyosatini amalga oshiruvchi institutlar inflyatsiyaning turli manbalarini doimiy ravishda baholab borishi lozim. Demakki, bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlar uchun inflyatsion targetlashni joriy etish murakkab va mas'uliyatlari vazifa hisoblanadi.

Yillik, yil boshidan va oylik inflyatsiya %



1-rasm

Manba :O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi⁴

2 2017-yil noyabr, 2018 yil feval, 2019 yil feval, 2020 yil dekabr va 2021 yil dekabr oylarida.

3 2019 yilda xususiy sektor o'sishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yirik soliq islohotlari joriy etildi

4 (<https://nsdp.stat.uz>)



1-rasmida qayd etilganidek, oylik inflyatsiya ko'rsatkichlari odatda 1–2 foiz atrofida barqaror bo'lган, biroq 2024 - yilning may oyida biroz o'sish qayd etilgan. Yillik inflyatsiya esa 10 foizdan yuqorida boshlanib, 2024 - yilning o'rtalarida eng yuqori nuqataga yetgan, keyin esa 2025 - yil davomida pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Bu holat narx barqarorligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlarining amaliy samarasidan dalolat beradi.

O'zbekistonda pul-kredit siyosatining natijalari:

So'nggi yillarda mamlakatimizda inflyatsiya darajasida izchil pasayish kuzatilib, bu jarayonda Markaziy bankning inflyatsion kutilmalarni boshqarishdagi roli sezilarli bo'ldi. 2017-yil sentabr oyida milliy valyutaning 50 foizga devalvatsiya qilinishi natijasida narxlarning keskin o'sishi qayd etilgan bo'lsa-da, qat'iy pul-kredit siyosatini amalga oshirish orqali inflyatsiya ko'rsatkichlari ma'lum darajada barqarorlashdi va pasayish tendensiyasi shakllandi. Shunga qaramay, bugungi kunda inflyatsiya darajasi hali ham nisbatan yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Bunga bir qator omillar – milliy valyuta kursining izchil qadrsizlanishi, tartibga solinadigan narxlarning bosqichma-bosqich erkinlashtirilishi hamda global iqtisodiy muhitdagi salbiy jarayonlar, jumladan, yetkazib berish zanjirlarida yuzaga kelgan uzilishlar va xomashyo bozorlarida narxlarning ko'tarilishi sabab bo'lmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rniда shuni ta'kidlash mumkinki, O'zbekistonda olib borilayotgan targetlangan iqtisodiy siyosat mamlakat taraqqiyotida muhim burilish nuqtasi bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, inflyatsiyani jilovlash va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash orqali ijtimoiy islohotlar samaradorligini oshirish hamda kambag'allik darajasini izchil kamaytirish imkoniyati yaratilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pul-kredit siyosatini takomillashtirish, Markaziy bank faoliyatida institutsiunal mustaqillikni kuchaytirish va moliya bozorlarini rivojlantrish jarayonlari iqtisodiy o'sish uchun barqaror zamin yaratadi.

Bundan tashqari, geografik va ijtimoiy targetlash yondashuvlarini qo'llash mamlakat hududlari o'rtasidagi farqlarni yumshatishda, aholining turli qatlamlari uchun teng imkoniyatlarni yaratishda alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa iqtisodiy resurslarniadolatli taqsimlash, bandlikni oshirish va aholining daromad manbalarini kengaytirish orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, iqtisodiy siyosatni raqamlashtirish, davlat xizmatlarini elektron shaklda ko'rsatish va ma'lumotlar bazasidan samarali foydalanish kambag'allikka qarshi kurashning zamonaviy vositalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, inflyatsion targetlashga asoslangan iqtisodiy siyosat nafaqat narxlarning barqarorligini ta'minlash, balki jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda ham muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qoraliyev T. va boshqalar., Pul muomalasi orqali muvofiqlashtirish.
2. Нагорнов А., Политика таргетирования инфляции.
3. Кондратов Д., Денежно – кредитная политика в странах Европы.
4. RudebuschG., Walsh C. U.S. inflation targeting: pro and contra // FRB of
5. San Francisco Economic Letter.
6. 2017 йил ноябрь, 2018 йил февраль, 2019 йил февраль, 2020 йил декабрь ва 2021 йил декабрь ойларида.
7. 2019 йилда хусусий сектор ўсишини кўллаб-кувватлашга қаратилган йирик солиқ ислоҳотлари жорий этилди.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezident PF-5877-sonli "Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni.
9. www.iqtisodiyot.uz
10. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2014 yil
11. <https://nsdp.stat.uz>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosinganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosingan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100